

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 7-iyul, chorshanba № 27 (9352)

Xalq ziyolilari gazetasi



Nega
bunday
bo'ldi?

5-bet

2-3-betlar

4-bet

Yamoq solib yamalgan yo'llar
(braziliyalik do'stim Leo o'qimasin)

6-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



O'qituvchi maoshi haqida so'z ochilganda bugungi kun pedagoglarining bilimi, kasbiy mahorati qanday, degan o'y ham o'tadi xayolimdan. Albatta, maktabda 5 millionlab maosh olayotgan faol, tajribali o'qituvchilar mehnatiga yarasha haq olyapti. Lekin shunday o'qituvchilarni ham bilamanki, attestatsiyadan 55 ball to'play olmay, direktorga xushomadi orqali ustama hamda 1,5 stavka dars olib 4 mln maosh oladi. Fikrimcha, ko'rsatilayotgan e'tiborga munosib mehnat qilishimiz kerak.

Hulkar HAYITOVA



Direktorimiz "O'qituvchi xalqi och ham qolmaydi, boy ham bo'lmaydi", deb aytar edi. Lekin so'nggi yillarda boy bo'lish imkoniyatlari berildi. Qo'shimcha dars o'tib, bemaol pul topsa bo'ladi. Yana ko'p o'qituvchilarimiz tadbirkorlik bilan shug'ullanishyapti. Xullas, izlagan imkon topar.

Shoira BOZOROVA



Ona tili darslarining qisqarishi xalqimiz uchun asrimizning eng yomon xatosi bo'ladi. Kelajakda bizni avlodlar kechirmaydi. Ona tili va adabiyot fani uchun ajratilgan soatlar g'arib ahvolda. Hech bo'lmasa ona tili darsini guruhlariga bo'lib o'tish kerak. Hozirgi kunda texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik va jismoniy tarbiya o'qituvchilari ham ona tili va adabiyot o'qituvchisidan ko'proq oylik olmoqda. Bu o'tgan yilgi dars soatlari qisqarishining natijasi.

Safarali SIDDIQOV



Dolzarb mavzu

OTMlarga kirish imtiyozlari

Yurtimizda 130 dan ortiq davlat ro'yxatidan o'tgan oliy ta'lim muassasi mavjud. Ularga har yili qariyb 1.5 millionga yaqin abituriyent hujjat topshiradi. Lekin ularning 150 mingga yaqin qismi talabalik baxtiga muayassar bo'ladi. Ushbu OTMlarga kirishda esa hozirda imtiyoz asosida qabul qilishning 27 ta turi joriy qilingan. Bunday imtiyozlar abituriyentlar o'rtasidagi adolatli bilimlar raqobatida tengsizlikni yuzaga keltirmoqda. Bu holatni qonun oldida tenglik deb atalmish konstitutsiyaviy prinsipga zid deb atasak, qonun bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin, degan konstitutsiyaviy "qoida"ni ham inkor eta olmaymiz. Biroq, muammo shundaki, bu "qoida"ga ko'ra imtiyozlar ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo'lishi lozim. Demak, imtiyozlarning adolatligini va konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash uchun sinovda talab qilinadigan bilimlar va imtiyozga ega bo'lish shartlari o'rtasidagi aloqaga baho berish lozim bo'ladi.

Mavjud imtiyozlar holati

Avvalo OTMlarning kirish imtihonlarida berilayotgan imtiyozlarni ko'rib chiqsak. Ularning muallif tomonidan jamlangan taxminiy shakli quyidagicha:

Imtiyoz berilgan qatlam	Tasdiqlangan qaror raqami va sanasi
Harbiy qism qo'mondonligi tavsiyanomasiga ega abituriyentlar.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 31-maydagi PQ-1765-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi 681-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi PQ-4212-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi 375-son qarori bilan tasdiqlangan.
Harbiy xizmatchilarning farzandlari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3726-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 462-son qarori.
"Temurbeklar maktabi" bitiruvchilari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375 son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Respublika fan olimpiadasi g'oliblari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori.
"Bolalar sport o'yinlari"-ning respublika bosqichi g'oliblari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-soni Farmoni.
Chet tili sertifikatlariga ega abituriyentlar.	Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 395-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Badiiy akademiyaning respublika tanlovi g'oliblari.	Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan nizom, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Umumta'lim fanlaridan milliy sertifikatlariga ega abituriyentlar.	Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori.
Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari.	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi 3-son qarori.
Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 402-son qarori.

Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son qarori.
Nogironligi bo'lgan shaxslar.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi 417-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Bobotog' hududlari yoshlari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4995-son qarori.
Olis cho'l hududlari aholisi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-apreldagi PQ-2925-son qarori.
Xalqaro olimpiadalar g'oliblari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori.
O'zbekiston Yoshlar ittifoqining faol yoshlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-noyabrda 914-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan.
"Hamshira" respublika tanlovi g'oliblari.	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
"Tarbiyachi" respublika ko'rik-tanlovi g'oliblari.	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-qarori bilan tasdiqlangan nizom.
"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-noyabrda PQ-3402-son qarori.
"Nihol" mukofoti sovrindorlari.	Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 9-avgustdagi 169-son qarori bilan tasdiqlangan nizom, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Sport musobaqalari g'oliblari.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni.
Is'hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati bitiruvchilari.	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari(ota yoki onasi terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan jarohatlari tufayli nogiron bo'lib qolgan bo'lsa).	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi PQ-4212-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi 375-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Harbiy xizmatchilarning farzandlari(otasi yoki onasi harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan hamdan harbiy xizmat vazifasini bajarish chog'ida yaradorlik, kontuziya, shikastlantirish yoki kasallik oqibatida nogiron bo'lib qolgan bo'lsa).	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3726-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 462-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.
Harbiy qism qo'mondonligi va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tavsiyanomasiga ega abituriyentlar.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda PQ-3394-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.

Ota-onasining kasbidan kelib chiqib yoshlarni imtiyozli va imtiyozsiz degan toifalarga ajratish, bu bosh qomusimizning ijtimoiy tenglik prinsipi.

Konstitutsiyaga muvofiqmi?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bob 18-moddasiga ko'ra, *O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.*

Imtiyozlar faqat qonun bilan hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

18-moddaga aloqador yana bir muhim modda bu 14-moddadir. Unda quyidagicha norma belgilanadi:

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Yuqoridagi ikki muhim modda ham barchaning qonun oldida tengligini va kamsitishga yo'l qo'yilmagligini ta'kidlamogda. Shu bilan birga, istisno tariqasida, ijtimoiy adolat, qonuniylik va insonparvarlik prinsiplari asosidagina davlat o'z faoliyatini yuritib, aholining bir qismiga imtiyozlar berilishi mumkinligini eslatmogda.

Keling endi yuqoridagi prinsiplarning ilmiy sharxlariga to'xtalamiz. Avvalambor, qonuniy prinsip – barcha qonun va uning asosida chiqarilgan normativ hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va boshqa yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiylikni anglatuvchi prinsipdir. **Qonuniylik prinsipi** – bu har bir chora-tadbirning Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarga muvofiq amalga oshirilishini anglatuvchi tamoyildir. Bunda oliy qonun chiqaruvchi organ sifatida faqat Parlamentgina bunday imtiyozlar bera olishi mumkin. Buning ziddi esa konstitutsiyaviy normaga ziddiyatni keltirib chiqaradi. Konstitutsiyaviy normaga ziddiyat esa o'sha imtiyozning boshidan boshlab noqonuniy ekanligini va hech qanday kuchga ega emasligini bildiradi.

Shu bilan birga, bir nozik nuqtaga ham e'tibor qaratish zarurdir. Qonun oldida tenglik prinsipi adolatliklik prinsipiga ham muvofiq tushishi lozim. Chunki, imtiyozlarni qonun osti hujjatda ham, qonunda belgilasa ham adolatsizlik muhiti yo'qolmaydi. Ya'ni belgilangan imtiyozlar tenglikni buzmaydi deyishimiz uchun ularni adolatli ekanligiga oydinlik kiritish kerak. Misol uchun, Parlament tomonidan qabul qilingan barcha qonunlar qonuniylik prinsipiga amal qilishi mumkin, ammo ularning Parlament tomonidan qabul qilinganligi ushbu qonunlarning to'g'ridan to'g'ri adolatli ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun ham, qonunlarning qabul qilinishi jarayoni bilan birgalikda, ularning normativ mazmuni ham birdek muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy adolat prinsipini esa yuridik fanlar doktori, professor O.T. Husanov quyidagicha sharxlaydi.

Ijtimoiy adolat prinsipi – *hududagi barcha fuqarolarning manfaatli, ularning ish joyi, mulki ahvolidan qat'i nazar teng himoya qilishida, yordamga muhtojlarga alohida yordam qilishida, ularni qo'llab-quvatlash choralari ko'rilishida namoyon bo'ladi.*

Bundan ko'rinadiki, aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, yoin-

ki, boshqa fuqarolarga nisbatan to'la imkoniyatga ega bo'lmagan fuqarolar uchun Parlament ma'lum bir imtiyozlarni berishi mumkin. Chunki, ijtimoiy adolat prinsipi barcha insonlar uchun maqom-mansab, boylik, sog'liq va boshqa barcha maqsadlar yo'lida teng imkoniyatlar berilishini anglatadi. AQSH kabi davlatlarda irqi, jinsi, dini yoki millati tufayli jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynaladigan aholi qatlami uchun "affirmative action" nomi ostida universitetlarga o'qishga kirish, ishga joylashishda ba'zi yengilliklar taqdim etiladi.

Endi esa yuqoridagi moddalar asosida berilgan bu darajadagi keng ko'lamli imtiyozlarning konstitutsiyaviyligini ko'rib chiqsak. Maqola hajmi ham cheklanganligi uchun misol sifatida quyidagi qarorlarni huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilsak. Menimcha, quyidagi imtiyozlar Konstitutsiyamizdagi qonun oldida tenglik prinsipini buzuvchi imtiyozlar hisoblanadi. Sababi, birinchidan, asosiy imtiyozlar qonun bilan emas, balki, qonun osti hujjatlar orqali taqdim etilmogda, ikkinchidan esa ularning soni ko'payib, ta'lim sifatining yomonlashishiga zamin hozirlamogda, uchinchidan, Konstitutsiyamizning 18-moddasi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilganidek, imtiyozlar qonun asosida bo'lishi, ijtimoiy adolat prinsiplariga mos tushishi, mamlakatda yashovchi yordamga muhtoj, jismoniy jihatdan zaif kishilargagina imtiyoz berilishi lozim. Konstitutsiyaga asosan, qonuniy asosda O'zbekistonda ayollar, bolalar, nogironlar, yolg'iz qariyalari imtiyozga ega bo'lib, bu imtiyoz asosan iqtisodiy jihatdan qo'llaniladi, deya aytilgan fikrlarni qisman chetga surmogda. O.T. Husanovning qarashlariga suyanadigan bo'lsak, Konstitutsiyaning 18-moddasida aynan yuqoridagi subyektlarga imtiyoz berish nazarda tutilgan.

To'rtinchidan esa quyidagicha tartibda berilgan imtiyozlar Konstitutsiyamizning "ijtimoiy adolat" tamoyiliga zid keladi. Bunga bir necha misollar keltiraman.

1. 2020-yil 24-yanvarda tasdiqlangan "Bolalar sport o'yinlari"ning jamoaviy o'yin turlari bo'yicha respublika bosqichi g'oliblariga (1-o'rin) oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridan soha bo'yicha mutaxassislik fanidan maksimal ball olish huquqini beruvchi, uch yil muddat davomida amal qiliuvchi sertifikat beriladi.

Ushbu imtiyoz berilishi ikki tomonlama qaralsa ko'pchilik abituriyentlar noroziligiga olib kelishi mumkin. Bu qarorda, birinchidan, jamoaviy sport turi sportchilariga ham bunday imtiyoz beriladi. Ikkinchidan, bu imtiyozlar aynan sport sohasining o'ziga emas, umumiy berilmogda. Bu esa istalgan OTMga "grant" degan gap. Axir bu imtiyoz sportchilarga sportdagi ishlari uchun berilgan. Demak, u yoshlarga shu soha uchun ajratilma maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, vaqtining ko'p ulushini sportga bag'ishlagan bolani injenerlik yoki huquq sohasiga yo'naltirish xato ish. Balki u bu sohada ancha no'noqdir yoki yaxshi tushunmas? O'ylaymanki, berilayotgan imtiyozlar faqat sport so-

hasiga yo'naltirilsa, xalqaro toifadagi sportchilirimizning maktablari tobora mustahkamlanar edi. Biz ularning qaysidir ma'noda imkoniyatlarini ko'paytirib, bo'lajak qahramonlarimizning qobiliyatlarini boy bermayapmizmi?

2. 2012-yil 31-mayda PQ-17-65 va 2019-yil 17-avgustdagi 681-son tasdiqlangan qarorga muvofiq muddatli harbiy xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilarning tavsianomaga ega bo'lganlariga umumiy to'plagan balining 30 foizdan kam bo'lmagan miqdorda kirish imtihonlaridan qo'shimcha ballar beriladi va ular alohida kvota doirasida talabalikka qabul qilinadi. Harbiy qism qo'mondonligi tavsianomasiga ega abituriyentlarga imtiyoz berish menimcha noo'rin. Aslida bu ballar muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan xizmatchilarga yaxshi xulqi, vatanparvarligi, xizmatdagi namunali ko'rsatkichlari asos qilinib beriladigan imtiyozdir. Xo'sh, nega unda bu foizlar oliy harbiy ta'limga kirishda ozroq bo'lsa ham ish bermaydi? Bundan tashqari Konstitutsiyamizning 52-moddasi aynan shu haqda. Achinarlisi, harbiy tavsianoma asosida o'qishga qabul qilinganlarning aksariyat qismi(hammasi ham emas) tahsil olayotgan sohasini yaxshi bilmaydi, yaxshi ko'rmaydi. Ushbu auditoriyaga qo'pol qilib aytganda "osmondan tushib, kirib olgan".

3. 2019-yil 26-fevraldagi PQ-42-12 va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 375-son qarori bilan tasdiqlangan nizom. Ushbu qarorga binoan Ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlariga OTMlarning bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirish uchun davlat granti asosida OTMlarga umumiy belgilangan qabul kvotalarining 3 foiz miqdorda davlat granti asosida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi (tavsianoma asosida). Tavsianoma kunduzgi va sirtqi ta'lim shakliga bir marta kirish uchun uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi.

Bu ta'limdagi sog'lom raqobatning buzilishi emasmi? Shu o'rinda "ular kun-u tun bizni himoya qilishadi", "ularning halovati yo'q" degan gaplarni aytuvchilar ham topiladi, albatta. Aynan shu masala Konstitutsiyamizning 37-moddasida yoritilgan. Bundan tashqari, bu imtiyoz 18-moddaning "fuqarolar ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar" degan qismini qattiq buzmogda. Falsafiy tomondan qaralganda ota-onasining kasbidan kelib chiqib yoshlarni imtiyozli va imtiyozsiz degan toifalarga ajratish, bu bosh qomusimizning ijtimoiy tenglik prinsipi buzilishining yorqin namunasidir.

4. 2017-yil 20-iyun va 2019-yil 28-iyunda tasdiqlangan qarorlarga ko'ra, "Temurbeklar maktabi" bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o'tkazilgan test sinovlarida o'zlari to'plagan balning 30 foiz miqdordagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan balning 15 foiz

miqdordagi qo'shimcha ballar ko'rishidagi imtiyoz berildi. Shu o'rinda savol tug'iladi, harbiy ixtisoslashtirilgan maktabni bitirgan o'quvchini boshqa sohaga yo'naltirish to'g'rimi? Keyinchalik bolaning qiziqishlari o'zgarishi mumkindir, ammo boshqa oliy ta'lim muassasalariga kirishdagi 15 foizlik imtiyozni olib tashlanishi tarafdoriman. Fuqarolarning qaysi ta'lim maskanini bitirishidan qat'i nazar hamma uchun teng bo'lgan milliy test sinovlari tashkil qilinsa, hech kim o'zini kamsitilgan deb his qilmasdi. Aslini olganda bu maktab o'quvchisi umumiy ta'lim maktab o'quvchilariga nisbatan fanlarni chuqur o'rgangan bo'ladi. Shundoq ham yaxshi sharoitda o'qigan o'quvchilarga yana imtiyoz berish o'rinlimi?

5. 2017-yil 14-noyabr va 2017-yil 20-iyunda tasdiqlangan qarorlarga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolari Davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta'lim muassasalarining pedagogika ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlarsiz davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi. Hozirgi kunda yoshlar ittifoqining faol a'zosi bo'lish uchun nima qilish kerak? Davlat tadbirlarida faol ishtirok etish, ijtimoiy harakatlarda yaxshi taassurot qoldirish, yoshlar ittifoqi doirasida tashkil etilgan valantyorlik(ko'ngilli) ishlarida o'zini ko'rsatish lozim. Ammo bu pedagogika sohasida kelajak avlodni tarbiyalashda yoshlar ittifoqi a'zolarining yetarli malakasi va bilimi bor degani emas. Shuning uchun ham ushbu imtiyoz talabalikka tayyorlanayotgan ko'plab yoshlarning e'tiroziga sabab bo'lmogda.

OTMlarga qabul qilishda subyektning kimligi, mavqei, qayrini tamomlagani, kimning farzandi ekanligi va shunga o'xshash sifatlaridan ko'ra, shaxsning qobiliyati, bilimi, fanni qanchalik bilish darajasi hisobga olinsa, mamlakat sanoq orqali emas, bilim sifati bilan oliy maqsadga yetgan bo'lardi. Biroq bu fikr qat'iy ijro etiladigan bo'lsa, aholining ijtimoiy nochor yoki poytaxt va shaharlashgan joylarga nisbatan yetarlicha imkoniyatga ega bo'lmagan aholi qatlami adolatsizlik qilgan bo'lamiz. Shunday ekan, imtiyozlar berilishiga oid qoidalar – ularning standartlari aniq ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Chunki, yuqorida keltirilgan ro'yxatda nogironlik uyi bolalari, respublikamizning uzoq hududlaridan kelgan o'quvchilar va muhim yo'nalishlar bo'yicha g'oliblarning holatini bir muncha ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan tushunsak-da, boshqa toifadagi abituriyentlar holatini ijtimoiy adolat mezonida o'lchashda qiyinchilikka duch keldik.

Shunday ekan, barcha imtiyozlarni faqat Parlamentda ochiq muhokamadan o'tkazgan holda, qonuniy shaklda berish, imtiyozlarni qo'lga kiritiladigan aholi qatlamining betaraf mezonini ham qat'iyalashtirish maqsadga muvofiq. Aks holda aholining boshqa bir qatlami ga ijtimoiy adolatsizlik qilingan bo'ladi.

Shahriyor ABDUBOQIYEV,
Muqimiy nomidagi Qo'qon
pedagogika institutining
tarix fakulteti talabasi

Ertalab metroga tushganmisiz? Yaxshisi, tushmay qo'ya qoling! Tiqilinch-ku, mayli, chipta olish uchun cho'zilgan navbatning oxiri ko'rinmaydi. Shoshib turgan payt soatga qarayverib charchab ketasiz. Odatda, odamlar kech qolmaslik uchun metroga chiqadi, ammo hozir oldingidek jeton tangachalarni bir olishda 10–20 ta olib, istalgan paytda ishlatishning imkoniyati yo'q. 30 minut ichida foydalanish lozim bo'lgan qog'oz chiptalar berishyapti.

Metroda ham “qog'ozbozlik”

Shaxsan o'zim navbatda turib, kech qolavergach, oylik kartadan foydalanadigan bo'ldim. Sariq — talabalar, yashil — o'quvchilar, qizil — nafaqaxo'rlarga mo'ljallangan kartalar ancha qulay. Bundan tashqari,

“Humo” kartasidan ham ko'pchilik foydalanadi. Biroq jamoat transportiga bizga o'xshab har kuni emas, onda-sonda chiqadiganlar ham bor-da. Umuman, hamma ni birdek o'ylash kerak, nazarimda. Chunki har kuni

ertalab shu holatni ko'rib, kimga qanday arz qilishni bilmay boshim qotadi.

— Biz foydalanayotgan qog'oz chiptalarning yana bir salbiy tomoni — ishlatib bo'lgach hamma ham uni maxsus idishga tashlamaydi, yo'l o'rtasida sochilib yotadi. Juda xunuk holat, odamning g'ashiga tegadi. Buni ko'rgan turistlar madaniyatimizga “tasanno”, deb ketmaydimi?! — deydi talaba Malika Ergasheva.

To'g'ri, qog'oz chiptalar virus tarqalishining oldini olish uchun qilingan ish. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Jetondan yuqadigan virus, masofa saqlamasdan to'da-to'da bo'lib, navbatda turganimizda yuqmaydimi?!

Dilafroz ABDURAJABOVA,
“Ma'rifat” muxbiri

Mulohaza

Dardim aytsam, davo bormi?.. (yoxud ta'lim taraqqiyotiga kimlar mas'ul?!)

Ishim maktabda ta'lim beradigan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan suyunaman, o'rni kelsa xato va kamchiliklaridan kuyunaman. Meni eng ta'sirlantirgan real hayotiy haqiqatni sizga bayon etsam.

Ta'lim olgan ustozlarim orasida tajribali, mahoratli, mehribon va ta'sirchan bir muallima bor. U bilan bir necha yildan buyon ta'lim-tarbiya borasida fikrlashib, maslahatlashib ishlab kelimiz. Shu darajada o'z ishiga mas'uliyatli, o'rni kelsa o'zim ham u kishidan ta'lim olganimni bilmay qolaman. Jamoasida ham hurmati yuqori. Nafaqaga chiqishiga yana ikki yil qolgan. Eng qizig'i, shu ta'riflar yonida ustozning ism-familiyasini ochiq yozolmayapman, chunki shundoq ham o'ksik qalbini battar yaralagim kelmaydi. Opa o'qitgan o'quvchilar allaqachon yuqori lavozimlarda, mas'uliyatli ishlarda ishlaydi, oliy o'quv yurtlarida ta'lim oladi. Ammo ustoz ikki bor toifa testlaridan o'tolmadi. Darrov xulosaga shoshilmang. Uni bekorga “ta'sirchan” va “mehribon” sifatleri bilan atamadim. Har gal sinovga kirganida hayajonlanibmi yo boshqa sabablar bilanmi yomon natija ko'rsatadigan ustoz “men maktabdan ketaman, bu sharmandalikka chidash qiyin, o'quvchilarimning ko'ziga qanday qarayman” deb yig'laganida yuragim og'iridi.

Muammoni qanday yechamiz? Har qadami, yurish-turishi, so'zlari ibrat va tarbiya bo'lgan mahoratli ustozning maktab dargohini muddatidan avval, boshini egib tark etishi og'ir. Bunda avvalambor, yutqazadigan tomon davlat, maktab va o'quvchi bo'ladi. Ong, ruh, tana, idrok, layoqat — bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar. Internetda qo'l va oyoqsiz mashhur motivator, notiq Nik Vuychichni tanimagan inson bo'lmasa kerak. Uning mashhur fikrlaridan iqtibos keltirmoqchiman: “Agar siz menga bugun milliard dollar bersangiz, xursand bo'laman, ammo o'sha tunda onam vafot etsa ham men baxtiyormanmi... Dunyoning bor mablag'i ham mening ko'ngil yaralarimni tuzatolmaydi-ku...”

Meni bir savol doim qiynaydi. Toifa uchun o'tkazilayotgan testlar faqatgina o'qituvchining nazariy bilimlariga asoslanadimi?! Nahotki, birgina test jarayoni o'qituvchining kasbiga

loyiq yoki loyiq emasligini belgilab bersa. Ko'p sohalarida xorij tajribasini o'rganib, o'zimizda sinashga, targ'ib qilishga harakatlar kuzatilgan. Yaxshi bilimzki, natija berayotganlari ham talaygina, ammo milliy pedagogika tariximizni kuzatsak, o'rganadigan o'rinlarimiz ham bor-ku. Xo'sh, rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchi o'z o'miga munosibligini qanday isbotlarkan?! Masalan, ta'limda yuqori natijalar ko'rsatayotgan davlatlardan biri Finlandiyani olaylik. Xo'sh, Finlandiya ta'lim tizimi bunday muvaffaqiyatga qanday erishdi? Zero, aksariyat hollarda fin talabarlari AQSH va Buyuk Britaniya talabalaridan yuqoriroq natija qayd etadi. Finlandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto talabalar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kalitidir, deb hisoblashadi. Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talablar juda yuqori. U yerda o'qituvchi xuddi shifokor va yurist kabi maqomga ega, ijtimoiy mavqeyi ham yuqori. Bunga sabab o'qituvchi kasbiga talabning yuqoriligi hamda malaka imtihonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlandiyada ular o'qituvchilarini doimiy ravishda baholab borish zaruratini sezmaydi. Agar o'qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o'tadigan bo'lsa, u bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanib qo'ya qoladi.

1990-yillar boshlarida Finlandiyada maktablarning maxsus komissiya tomonidan tekshirilish amaliyoti bekor qilindi. Finlandiyaliklar o'qituvchi va maktab rahbarlarining professionalligiga ishonadi. Maktablar o'z-o'zini baholashga da'vat etiladi. Shuningdek, xususiy maktablar ham mavjud emas. Fin maktablari o'rtasida raqobat yo'qligining sabablaridan biri shundaki, barcha maktablar davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois qayerda-

dir yaxshi, qayerdadir sustroq ta'lim berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Finlandiya maktablarining barcha o'quvchilari tushligi davlat tomonidan qoplab beriladi (deputatlarimiz aynan shu joyini kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida ko'tarishsa, yomon bo'lmasdi. Ishonavering, qorni och o'quvchi bilim olish jarayonida qorni quldiraganidan xijolatlik dahmazasidan qutuladi va o'qituvchi ham ta'lim berishda yengillik his qiladi). 1943-yildan buyon shunday.

Finlandiyalik o'qituvchilar odatda kuniga 4 soatdan mashg'ulot o'tkazadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratiladi. Bu esa, muallimlarga tushadigan stressni kamaytiradi. Finlandiya milliy o'quv dasturi keng qo'llanma bo'lib, o'qituvchilarga o'z uslubini va fikrlarini sinfda ishlatishiga imkon beradi. Bu Finlandiya ta'lim tizimining o'qituvchilariga bo'lgan ishonchiga asoslanadi (“Finlandiya ta'lim tizimi haqida qiziqarli ma'lumotlar” Tarjimon.uz saytidan olindi).

Yana vatanimizga qaytamiz. Hayotiy va pedagogik tajribamdan kelib chiqib aytaman, nazariy bilimi mukammal bo'lib, pedagogik mahorati yetishmaydigan muallimlarimiz ko'p. Nazariy bilimlar ko'nikma, malaka bosqichlaridan so'ng layoqat darajasiga ham aylanmog'i kerak. Darsda ta'lim tugul shovqinni bostirolmaydigan o'qituvchilar ham yo'q emas.

Hurmatli ziyolilar va oliy o'quv yurtiga qabul o'tkazuvchi mutasaddilar, bir savol bersam javob bera olasizmi? Nega boshqa sohadagilar (masalan: huquqni muhofaza qilish organlari, tibbiyot), o'z yo'nalishiga yangi avlodni qo'shish jarayonida ularni obdon chig'iridigan o'tkazadi ammo mashaqqatli o'qituvchilik kasbiga qabul qilishga e'tibor bunday emas. “Jismoniy tarbiya” yo'nalishida o'qimogchi bo'lgan o'quvchi bir nechta amaliy topshiriqni bajaradi-yu, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lishga da'vogarlar faqat test bilan kifoyalanadi. Qani bu yerda haqiqat? Agar yozma imtihondan o'tgan talaba test sinovida ishtirok etishi belgilansa, shunda kelajakda kuzatilishi mumkin bo'lgan muammolarning oldi olingan bo'larmi-

di? O'qituvchilarning bilim darajasini faqat test bilan aniqlab o'lyapmiz-u, boshqa jihatlarga e'tibor bermayapmiz. Nega o'qituvchilarning yo'nalishidan kelib chiqib sinovlar joriy etolmaymiz? Yechimni mablag'ga taqasangiz, men gapni kelajak va istakka olib boraman. O'zi shundoq ham yozuvdagi qo'nimsizlik ortidan yo'qotganlarimizning hali beri o'rni to'ldirolmaymiz.

Qalblarning zabt etilishi muhimroq bo'lgan hayotda kasbiga layoqatlilik darajasini aniqlash uchun boshqacharoq yo'ldan borayotgandekmiz. Nega ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining kasbiga loyiqqligini aniqlash uchun insho, diktant, esse kabi imkoniyatlar bo'lgan bir davrda biz test bilan o'rallashib, yakuniy xulosani beryapmiz? Aslida savodxonlik har davrda va hamma vaqt urf darajasida bo'lishi kerak. Bu esa faqat ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining majburiyati va mas'uliyati emas. Biolog, matematik, mehnat o'qituvchisi, tarixchi, iqtisodchi, siyosatchi, umuman olganda, qaysi soha va yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar, inson o'z savodxonligi bilan ta'lim va jamiyat rivojiga hissa qo'shmog'i lozim.

O'qituvchilarga, o'quvchiga ta'lim va baho berayotganingizda shaxsiy xislatlariga e'tibor bering deb ko'p bora ta'kidlayman. Sinfdagi 25–30 o'quvchining hammasi ertalabdan qorni to'q keladimi (och qoringa yangi ma'lumot tugul gap ham yoqmaydi), miyasi qabul qilishiga mos topshiriq beryapsizmi, bolaligida ko'p kasal bo'lgan yoki surunkali kasali bor bolaning imkoniyatlarini ham inobatga olayapsizmi, kabilarni aytarkanman, har o'quvchiga shaxs sifatida qarashlarini so'rayman. Aslida ham har bir o'quvchi ortida otana, mahalla, xalq, davlat turadi.

Qur'oni karimning “Al-muddasir” surasi 38-oyatida “Har bir shaxs o'z kasbining garovidir” deyilgan. Unutmaylik, har birimizning kasbimiz imkoniyatimizdir. Imkoniyatdan unumli foydalanib, avlodlarning porloq kelajagiga zamin yaratgan ajdodlar sifatida tarixdan joy olaylik.

Surayyo QODIROVA,
Surxondaryo VXTXQTMOHM
“Tillarni o'qitish metodikasi” kafedrasida
katta o'qituvchisi

Luqma

Yamoq solib yamalgan yo'llar (braziliyalik do'stim Leo o'qimasin)

Xorij filmlarini tomosha qilar ekanman, osmono'par binolar, qop-qora shinam yo'llar e'tiborimni tortadi. Insonlarning hayotdan mamnunligini kulib boqqan nigohi, nurli chehrasidan sezish mumkin. Bunday shukronalik yurtimiz ahliga ham xos, albatta. Biroq qanchalik darajada?!

Yurtimizda qurilish va yo'l ta'mirlash ishlari jadal rivojlanib boryapti. Avtomobil yo'llarini loyihalash, ta'mirlash, qurish va qayta qurishga har yili davlat budjetidan milliardlab pul ajratilyapti. Ammo...

Yelkaga yuklatilgan mas'uliyatli topshiriqni ado etish sharaflı burchdir. Ayniqsa, bu xizmat Vatan oldidagi qilayotgan ishlarimizning debochasi bo'lsa, qalbimizda faxr hissi uyg'onishi, shubhasiz. Biroq, bu sifatlar el oldida ko'krak kerib, xizmat qilayotgan yo'l "usta"lariga tegishli emas. Chunki ular bizga qurib bergan yo'llar juldurvoqining juldur kiyimiga yamoq solib yamalgandek, teshilib ketgan tog'oraga mum surkab qo'ygandek.


Yaqinda yarim tunda Toshkentdan Vobkentga kelib, haydovchilardan qishlog'imgacha eltib qo'yishini so'radim. Men tushirayotgan yuklarga halloslagancha talashayotgan shofyorlar og'zidan "So'fidehqon" nomini eshitgach, boshqa mijozlarga qarab intildi. Zo'rg'a bir shofyorni ushlab, 7 km chiqadigan yo'lga 30 ming so'm pul berib uyimgacha yetib keldim. Ammo bu yo'ldan yurgan haydovchining ona suti og'zidan keldi, meningcha. To uyimga yetgunimcha mashinaning "ichagi" to'kildi.

To'g'risi, juda xijolat bo'ldim. Qishloqning bugungi holatidan, yaroqsiz yo'llaridan uyaldim. Axir bu yo'llardan yo'lsozlarning farzandi, ota-onasi, yor-u birodari ham qatnashi turgan gap-ku! Ertaga uning kasofati shu yaqin insonlaridan biriga tegib o'tishidan nahot cho'chishmasa?!

Ha, yana bir gap! Taksiga chiqqanimda, uch-to'rt kishining gurgunini eshitib qoldim. Ularning aytishicha, ishchilar yo'lning sayoz joylariga ozgina shag'al yotqizib, ishlar qilinganligi to'g'risida hisobotga imzo chekishini iddao qilgan emish. Mahalla oqsoqollari bu ishlar hali tugallanmaganligi, avtomobil yo'llari to'liq asfalt qilinishini aytas, ularni siquvga olib hujjatlarga qo'l qo'ydimochi bo'lgan emish va bunga erishibdi ham. Axir bu holat qip-qizil qalloblikning o'zi-ku!

Shahar markazlaridan o'tgan shos-selarni bekam-u ko'st qayta-qayta rekonstruksiya qilishadi. Chunki ko'zga tashlanadi-da. Mabodo, hokim, vazir, prezident o'tib qolsa bormi, naq boshiga yetti metrlik kunda kelib tushadi-ya. Koshki, mahalla-ko'y, qazarlarga ham hech bo'lmaganda o'n yilda bir marta shunday e'tibor berishsa. E'tibor berishganda ham sidqidildan, halollik va mas'uliyat bilan yondashishsa...

Gapning po'stkallasi shahar markazlaridagi yo'llarga borib taqalarkan,



laqabi "Chuqur bozor" deb ataluvchi savdo kompleksi tomon eltadigan yo'lni eslash o'rindir. "Shanba" va "Nayman" MFYga qarashli ushbu yo'l necha yildirki qarovsiz qolmoqda. Vaholanki, bu ko'chalarni ta'mirlash uchun qanchadan-qancha pul ajratilgani quloqqa chalilib turibdi.

Qishloq-ku nomi bilan qishloq. Ammo, bozorga Xargo'sh, So'fidehqon, Nayman, Xayrobodcha, Shirin va boshqa hududlardan, hattoki, qo'shni viloyat Navoiydan ham savdogar va xaridorlar kelib oldi-sotdi qilishadi. Demak, bu yer markazlashgan hudud. Afsuski, minglab odamlarni savdo-sotiq qilish uchun o'ziga chorlaydigan yo'l ko'rimsiz, yaroqsiz holatda. Gapning indallosiga o'tsak, "markaz" joylarga ham sekingina qo'l siltab qo'yishyapti. Bu yerdagi bozorning holati-ku alohida mavzu...

Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, so'nggi ikki yil ichida mamlakatimizdagi ta'mirtalab yo'llarda 532 marta avtohalokat sodir bo'lgan. Avariya natijasida 191 kishi vafot etgan. 511 nafar fuqaro qattiq tan jarohati bilan shikastlanib, kasalxonaga yotqizilgan. Shu yili avtotransport harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, piyodalarga qulaylik yaratish, avtomobil yo'llarini qayta qurish va ta'mirlash maqsadida 4,5 trln so'm mablag' ajratilgan. Buncha mablag'ning hech bo'lmaganda 0,5 foizi biz tomonlarga ham investitsiya qilinsa, nur ustiga nur bo'lar edi. Faqat bu ishlarga bosh-qosh bo'lib Transport vazirligi huzuridagi avtomobil yo'llari qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari Shuhrat Nazarov kelib turishi kerak-da.

Ikki oy oldin telegram ijtimoiy tarmog'ida braziliyalik do'stim Leo bilan inglizcha suhbat qurgandim. U ham menga o'xshagan chapani yig-

it. Sayohatni, dunyo kezishni xush ko'radi. Shu sababdan mening o'lkam, qishlog'im ko'rinishiga qiziqish bildirdi. Dastavval, o'zi yashaydigan hududning so'lim va xushmanzara go'shalarini videoga olib jo'natdi. Uyi chekka bir hudud, daraxtzorlar qo'ynida bo'lsa-da, musaffollik, go'zallik, tozalik nafasi ufurib turardi. Ayniqsa, o'rmonzorning o'rtasidan o'tgan qop-qora asfalt yo'l qishloqning husniga ko'rk bag'ishlardir. Keyin mendan ham xuddi shunday videoga olib yuborishimni iltimos qildi. O'sha damda Chuqur bozor tomonlarda edim. Bahonaning zo'ridan gapirib, tekis va ravon yo'lga chiqqandan so'ng videoga olib jo'natdim. Aytaversam, bunaqangi hayotiy misollar umr yo'llarimizda juda ko'p uchraydi.

Qishlog'ingizga bir nazar tashlasangiz, hassaga tayanib yuradigan qariyalar, ichiga sig'may ko'chaning u betidan bu betiga chopqillaydigan bolachalar, nogironlik aravachasida qo'llari bilan zo'rg'a harakatlanadigan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar qanchadan-qancha. Ularning sihat-salomatligi, ertangi kelajagi biz yurgan ko'chalarga bog'liq emasmi? Ular xavf-xatar iskanjasida qolganda har yili hayotimizni sug'urta qiladigan kafolat "yostiqla"si yordamga yetib kelmaydi-ku, baribir. Bugun mana shu e'tiborsizlik sabab shod-u xurram, baxtli va farovon yashayotgan oilada aza ochilmaydi, deb kim kafolat beradi?!

Tilagim, yangi O'zbekistonda yangicha yo'llar barpo etilsin. Vijdonsizlarga Ollohning o'zi insof bersin. Mutasaddi tashkilotlar, rahbarlar berilgan topshiriqni jonsaraklik bilan bajarsin. Zero, yangi O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan yosh avlod xorij muhitini emas, mamlakatda bo'layotgan yangi o'zgarishlarni ko'rib yashagisi kelsin!

Azim AXTAMOV

Jazirama kunlarning birida Dilshoda qo'ng'iroq qildi:

"Perevodni nima qilamiz?"

U bilan Qozog'istonda tanishganmiz. O'qishimizni O'zbekistonga ko'chirish harakatida edik.

Kursdoshlaridan ayrimlari pul bilan gaplashayotganini aytdi.

Puli qancha deysizmi? Kamida 4 ming dollar. Kami shu bo'lsa, ko'pi qancha ekan? Shu

"perevod" qilishda ham oti o'chgur korrupsiya.

Aqchasiz ham "perevod" qilsa bo'ladimi?

Taklifni qarang-a, biz ham gaplashmaymizmi pulga — kursdoshimning tanishi bor, o'shanga aytamiz, deydi. Shu o'qishga kirish uchun 2 yil tayyorlanganmiz. Balimiz yetmagan uchun chetga o'qishga bordik-da. Shundoq ham pul bilan o'qishga kirgan bo'lsak, "perevod"ni ham pulga qilsak uyat-e, dedim. Qolaversa, menda qozoq tilida aytisak "aqcha" yo'q. Hazilakam pulmi 4 ming dollar? Qonunlarni bekorga chiqarib qo'yamandir. Haqiqat bo'lsa, "perevod" olarmiz, o'xshamasa yana "tenge" ber deyidigan opalarimiz oldiga qaytamiz. "Perevod" bo'yicha qonunimizga biq qur nazar tashlasak.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlash-tirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlash-tirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan belgilangan.

Shu qaror natijasiga umid qildik. Pandemiya sababli hamma joy karantinga olingan, chegaralar yopiq. Hujjatimizni onlayn olish uchun guruh rahbaridan najot kutishga majburmiz. Uning ko'ziga biz pul bo'lib ko'rinamiz, bu aniq. "Qurug' qoshiq og'iz yirtar" deganidek, bitta hujjat uchun ham pul so'radi, yaxshiyamki o'sha hujjatda faqat semestr baholaramiz qo'yilgan. Hattoki, shu baholarning ayrimlari ham pulga qo'yilgan. Xullas, Azat og'ay (kura-torim) so'ragan pulni yubordim. Va'da qilganidek, hujjatimni pdf qilib jo'natdi. Men onlayn hujjat topshirdim. Imtihon bu yil chekiktirildi hurmatli "Covidjon" tufayli. Nihoyat, sentabr — kamina va menga o'xshagan, shu kunlarni kutgan talabalar uchun xursandchilik kuni keldi. Imtihonim 5-sentabrda bo'ldi. Imtihonga hayajon bilan kirdim. Testni onlayn yechdik. Nazoratchilar bir-biriga ko'z qiri bilan ishora qiladi. Dugonam aytganidek, pul bilan gaplashgan kazo-kazolarning farzandlari testini ijobiy hal qilish bilan ovvora. Nima ham qilardim, indamay testimni yechdim, chunki vaqt ketayotgandi. Onlaynligi uchun o'sha vaqtning o'zida javobini bildik. Javobim ijobiy chiqdi — boshqatdan o'qishga kirgandek sevindim. Palon mablag' sarf qilganlarning ham testi ijobiy chiqqandir. Shuncha pul beradi-yu, ijobiy chiqmay o'libdimi? Ular bilan nima ishim bor, o'zinning ishim bitta bo'ldi, deb qachongacha ko'z yumishimiz kerak. Korrupsiyaga chek qo'yish vaqti kelgandir balki!

Feruza ALIMQULOVA,
O'zJOKU talabasi

Maktab esa onadek har bir bolani tafakkur olamida yaratadi.

Ona maktabga ta'zim...

Hasan Bo'riyevni respublikada hamma taniydi. Surxondaryoda ardoqli inson. Ustoz shunchaki professor emas. Olim ancha yillar Toshkent davlat agrar universitetiga rektorlik qilgan, biologiya fanlari doktori. Xalqaro agrar ta'lim akademiyasi va Xalqaro oliy ta'lim akademiasining haqiqiy a'zosi. Hozir agrar universiteti professori bo'lib faoliyat yuritayпти. Ilmiy asarlari xitoy, ingliz, nemis, fransuz, golland-u polyak tillarida nashr etilgan. Yaratgan darsliklari necha martalab tanlovlarda nufuzli o'rinlarni egallagan.



Bugun 70 yoshni qoralagan olim qarilikning gashtini surib Komiljon Otaniyozov, Sherali Jo'rayevni eshitib yuraversa bo'ladi. Ammo professor kutilmaganda bezovta o'yga taldi. Uyqusi qochdi. Prezidentimizning maktab, kitoblarni haqida aytgan so'zlarini o'ylay boshladi. Sal ilgari Hasan aka o'zi o'qigan maktabga borgan. Ko'ngli to'lmadi. Nima qilish kerak? Yuragidagi fikrlar g'alayon qilaverdi. Maktabni ko'tarish, ilmini yaxshilash zarur. Nahot qo'limizdan hech narsa kelmasa? Keladi! Beparvolik yomon. Kitobning ichida yurgan kishi tushunadi-ku, ummon ham zarradan yaralgan. Nozim Hikmat zo'r aytgan-da:

Men yonmasam,

Sen yonmasang.

U yonmasa,

Qorong'uliklar

Yorug'likka

Qanday chiqadi?!

Bobolar aytishardi, bir joyga o't ketsa, qarq'a xas keltiradi batamom tugasin deb. Qaldirg'och tumshug'ida qatra suv olib keladi asrab qolay deya. Biz insonmiz, qaldirg'ochday hech bo'lmasa "qatra suv"ga kuchimiz yetmaydimi? Belni besh joydan bog'lasak, hatto tog'ni ko'tara olamiz.

Professor Qumqo'rg'on tumanidagi 14-maktabda o'qigan. Mahallada yaxshi gap qaldirg'ochday uchdi: "Professor maktab kutubxonasiga 1000 dan ziyod kitob olib kelyapti. Yaxshi o'qigan 20 nafar bola-

ga kiyim-bosh, maktab formasi sovg'a qilyapti. 500 tupga yaqin bog' ko'chati olib boribdi. Hozir zo'r o'syapti ekan".

Yana xushxabar. Ustoz bugun o'qigan maktabiga katta shoirlar bilan kelibdi. Zo'r ay-yom ekan-da. Maktabning maktab bo'lganiga 70 yil to'lyapti-yu hozirgacha birorta xalq shoiri kelmagan ekan. Hasan akaning tashabbusi bilan mana maktab ahli O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, Xalq yozuvchisi, "Tafakkur" jurnali bosh muharriri Erkin A'zam bilan yaqindan suhbat qurishdi. Bir tomonda ustozlar, bir tomonda o'quvchilar, yon tomonda nuroniylar, vujudlar nigohlarga aylangan. Usmon Azim dengiz to'liqlariday she'r o'qiyapti. Erkin A'zaming

so'zlari tog'day og'ir va zalvorli. Yana kitoblarni sovg'a qilindi. Shu bitta maktabdan 8 nafar fan doktori chiqqan. Aytishga oson. Ular maktabda o'qib, maktab yaratgan. O'ylab turib hayron qolasiz. Maktab tuman markazidan 30-35 kilometr uzoqda. Hashamatli, "maqtovg'a sazovor" maktab emas. Nihoyatda ko'ngli yorug' ustozlar maktabi.

Anjuman avjida. So'z fan doktori, professor Hasan Bo'riyevga berildi:

— Kitoblarni, sovg'alar, boqqa nihollar. Bularning hammasi boshlanishi. Kuchni birlashtir-sak, ko'p narsaga qodirmiz. Kutubxonamizni kitoblarni bilan boyitganimiz bilan ularni o'qimasak bo'lmaydi. Endi kitob o'qiganlar o'rtasida tanlov o'tkazamiz. G'oliblarga mukofot beramiz. Nima mukofot deysizmi! Bu hozircha sir. Lekin ko'p kitob o'qib, g'olib bo'lganlar mukofot olganida, ishonig, shodligi dunyoga sig'maydi. Umr bo'yi quvonadi. Yana to'garaklar ochamiz. Botanika, biologiya, bog'dorchilik, shaxmat. Ilm va hayot gurillaydi. Onamiz bizni dunyoga keltirdi. Maktab esa onadek har bir bolani tafakkur olamida yaratadi. Halima Xudoyberdiyevaning misralari yodimga tushadi:

Go'daklar orasida kelar pirlar bor,

Shu pirlarni ko'radigan ko'z ber, Xudoyim.

Kimga aytilgan bu? Dunyoga aytilgan. Lekin misralardagi hikmat olamini maktab o'qituvchilari nihoyatda teran anglashi kerakday. Erkin A'zam rost gaplarni gapirdi. Qobirg'ani yondirib o'tadigan so'zlarni aytdi. Bitta gapi "Devor dars bermaydi, o'qituvchi dars beradi". O'zingiz ko'nglingizdan o'tkazing-da. Ibn Sino bolaligida qishloqning oddiydan oddiy xonaqosida ustozidan dars olgan. Ustoz tog' bo'lsa, naridadir-beridadir jo'shqin soy, toshqin daryo paydo bo'ladi. Tog' yo'q joyda daryo oqadimi? Daryolar tog'dan boshlanadi. Maktab ham tabarruk ona. Ona aziz, ona ulug'.

Navoiy hazratlarining "Olimlarga ta'zim — payg'ambarlarga ta'zimdir" degan hikmatini eshitgansiz. Maktabga ilm katta kelganlar olimlardir. Shoirlar, yozuvchilar ham olimdir. Nuroniylar, keksalar, elda obro' topganlar ham hayot olimlaridir.

Mehmonlar qaytishmoqda. Ko'nglim bilan boqaman: keksa ona maktabning yuzlari quyoshli ko'rinadi. Bu yerda hayot yana-da munavvar bo'lsa ajab emas.

Mengnor O'LLOMUQOD,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Kuzatuv

Yashamoq ma'rifati yoki kim kimdan o'rganmog'i kerak?!

Qizcha har kuni shu yo'lni kesib o'tib maktabga borib keladi. Uydan chiqib ketarkan, buvisi duo qilgach "Qizim, svetoforaga e'tibor bergin. Yo'lingdan boshqalar, transport yurishiga xalaqit beradigan narsalar chiqib qolsa, albatta, chetga olib qo'y. Gul, giyohlar, dov-daraxtlarga ozor yetkazmay borib kelgin, bolam. Zinhor atrofga chiqindi tashlama. Tengdoshlaringni ham shunga unda, deya tayinlaydi.

Kecha uyga qaytayotganida shivalab yomg'ir yog'ayotgan edi. Ozgina izg'irinli shamol ham yelardi. Shunday bo'lsa-da, ancha yoshni qoralab qolgan amakilar, opalar yo'l chetiga ariqchalar olib biram chiroyli shakllardan manzaralar yaratgancha gul ko'chati o'tqazishayotgandi. Qizcha ularning ishini bir zum beixtiyor kuzatib turdi-da, ularga juda-juda ko'maklashgisi keldi. Lekin uyaldi. Buvisining "Atrofni yashnatgan kishi ko'p savobga ega bo'ladi, qalbi yashnaydi..." degan gaplari qulog'i ostida jaranglagani sari rango-rang chechaklarni bir-biriga uzatib zavq bilan ishlayotganlarga havasi kelardi. Ammo bugun... U endi katta yo'l bo'yiga yetgan edi, svetofoir chirog'iga ham qaramay haydovchisi bo'shagan suv idishini gulzor tomon irg'itgancha yelib ketgan mashinaga duch keldi-yu, yuragi zirqiragancha ancha payt joyida turib qoldi. Xayolini jamlab idishni olishga chog'languncha, ko'cha supurayotgan ayol nimalardir

deb shivirlagancha kelib haligi baktashkani olib chiqindilarni yig'ayotgan aravasi tomon ketdi. Qizcha zabt bilan otigan "zarba" tufayli bandidan uzilgan gulni qo'lga olarkan, adog'siz savollar xayolida aylana boshladi: "Ustozlarimiz tarbiyaviy soatlarda "Yaxshi o'qisangiz yaxshi inson bo'lasiz. To'kis yashaysiz... Yaxshi inson boshqalarning mehnatini qadrlaydi... Biz tabiat bilan tirikmiz..." kabi o'g'tilarni ko'p takrorlashadi. Bu mashina egasi yaxshi o'qimaganmi? Unda mashinani qanday sotib olgan. Axir ishlab pul topish uchun ham aql kerak-ku? Yaxshi odam bo'lsa nega ikki bukilib ko'cha tozalayotgan xola mehnatiga bepisan qaraydi. Gullarni nega yaxshi ko'rmaydi...". Qizcha bu o'ylarga to'qnashgani sari uning "yaxshi odam" haqidagi tasavvurlari ayqashuyqash bo'lib borardi. U har kuni shu xolani ko'radi: issiqmi, sovuqmi qo'lida supurgi. Ko'chalar, bekat atrofni tozalaydi. Chiqindilarni yig'ib, belgilangan

joyga olib borib tashlaydi. Lekin ko'p o'tmay yana turli qog'oz parchalari, sigareta qutilari...sochilib yotadi. Qizcha bu illatga aksariyat holatlarda bolalar emas, kattalar aybdorligini biladi. Hatto, yo'l-yo'lakay chiqindi solingan sarafan xaltasini shundoq yo'l chetiga tashlab, avtobus tomon yugurib ketayotganlarni ham ko'rib qoladi. Ammo bir so'z deya olmaydi...

— Atrof-muhit tozaligiga katta e'tibor qaratilmoqda, — deydi Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi inspektori Sardor Niyo'zov. — Xususan Toshkent shahrining har bir tumanida bu masala bilan shug'ullanuvchi maxsus xodimlar bor. Ta'lim muassasalar, mahallalarda hamkor tashkilotlar bilan birga muntazam tarzda tashviqot, targ'ibot ishlari olib boriladi. Afsuski, ba'zan, hatto ziyoli kishilarning ham sal naridagi moslamalarga emas, shunday uyi qarshisidagi yo'l-u yo'lakay chetiga chiqindi tashlab ketayotganini ko'rib ta'bingiz xira bo'ladi. Albatta, bunday holatlarga qonuniy chora ko'riladi. Achinarlisi, hukumatimiz rahbariyati tomonidan atrof muhit muhofazasi masalasi kun tartibidagi eng dolzarb muammolardan biri ekani bot-bot takrorlanayotgan bir paytda ayrim yurtdoshlarimizning o'zlari, yaqinlari salomatligiga bevosita daxldor bo'lgan oddiy burchlarini ado etishga befarq qarashlari kishini taajjublantiradi.

... Qizcha shu kuni mahzun bir kayfiyatda uyiga qaytdi. Uning ko'z o'ngidan egnilari namiqib ketsa-da, endigina chiroy ochayotgan g'unchalarni avaylabgina tuproq qatiga "terib qo'yayotgan"lar, xazonga aylangan mitti chechak, "uh" tortgancha kuniga necha bora urinsa-da, mehnati ko'rkini ko'rolmay og'rinayotgan farrosh xolaning horg'in chehrasi ketmasdi. Darvoqe, aslida kim kimdan o'rganishi kerak? Bolalar befarq kattalardanmi? Yoki kattalarning loqaydligini ko'rib ko'zi, ko'ngli qotayotgan bolalardanmi?

Balki kimlargadir bu mayda-chuyda gaplardek tuyular. Ammo hayot tarzimiz shu kabi ko'z ilg'amas munosabatlardan tarkib topishi, bu esa ma'naviy olamimiz ko'zgusida aks etishi xususida ham o'ylab ko'rishimiz kerak. Demak, yashashning ham o'z ma'rifati bor. Biz bugun uning bir ko'rinishini kuzatdik, xolos. Ba'zida "Falon mamlakatda unday, piston davlatda bunday..." deya yurtimiz manzaralarini kamsitgannamo taqqoslayotganlar gurgun qulog'imizga chalinadi. Diyorimizda olib borilayotgan ulkan yuksalishlarga munosib yashash madaniyati, ma'rifati-chi?! Ana shunday savolni o'z-o'ziga berib yashash ilmidan bebahrallarning biri emasmikan tong pallasi beg'ubor qalbni larzaga solgancha mashinasini yeldek uchirib ketgan kimsa.

Oybuvi OCHILOVA

Yashasin ovsarlar!

yoxud Mark Tvenning "Ovsar Vilson" asari haqida

Adabiyot insoniyatga san'at sifatida bergan ma'naviy ozuqasidan tashqari, ko'pgina ilmiy-ijtimoiy kashfiyotlarga asos bo'lganligi bilan ham ahamiyatli. Hali jinoyatchilik olamiga daktilaskopiya kirib kelmasdan, "Ovsar Vilson" asari qahramonining qotilni barmoq izlari yordamida aniqlashi bunga bir misol.

"Ovsar Vilson" romani muallifi – jahon adabiyotining yirik namoyandasi Mark Tven 1835-yilda Amerikaning Misuri shtatidagi Florida shahrida tug'ilgan. U maktabdagi ta'limni nihoyasiga yetkaza olmagan. O'spirinlik va yigitlik davrlari ham darbadarlik bilan o'tadi. Tirikchilikning bir talay ko'chalariga bosh suqib chiqqan bo'ljak mashhur adib, taqdir taqozosi bilan gazetada faoliyat yuritib boshlaydi.


Gazetada ishlash mobaynida Mark Tven davrning ijtimoiy muammolari yoritilgan ocherk va boshqa uslubdagi badiiy asarlar yozadi. Uning ijodiy uslubi boshidanoq o'zining yumor ruhi va xalqning turmush tarzini chuqur ifodalashi bilan o'zga qalamkashlaridan ajralib turardi. Va aynan mana shu narsa yozuvchining qisqa muddatda mashhurlikka erishishi, o'z zamonasining taniqli kishilaridan biriga aylinishiga sabab bo'ldi.

O'quvchilari uni korrupsiya, irqchilik, siyosiy yolg'onlarni satira yo'li bilan boplab tanqid qilganligi uchun ham yaxshi, ham yomon ko'rishar, kimlardir yozuvchidan minnatdor bo'lib xat yozsa, yozuvchi tanqid qilayotgan illatlarga, mukkasidan ketgan ayrimlar uni haqorat qilib, o'zlarining alamli nafratlarini izhor qilishar, lekin tabiatan tirishqoq bo'lgan adib haqoratli gaplarga deyarli ahamiyat bermasdi. Bir safar unga kimdir "Cho'chqa!" degan so'z bitilgan imzosiz xat jo'natilganida ham, u o'sha kungi matbuot anjumani-da "Men ko'plab imzosiz xatlar olgandim, bugun tongda birinchi marta xatsiz imzo oldim!" deya hazillashgani haqida hangomalar bor.

Mark Tven dunyo miqyosida irqchilik, tabaqalanish avj olgan, qora tanlilarga nisbatan past nazar bilan qarash odatga aylangan bir vaziyatda davrning bu muammolariga qarshi kurashgan ilk adiblardan edi. Shunga ko'ra uning yozgan ayrim asarlari adabiyotshunoslardan tomonidan yasama kamchiliklar topib ayovsiz savalandi. Hatto asarlari o'qilishi va sotilishini taqiqlashgacha borishadi. Ammo Mark Tven asarlari qachondir yana katta tirajlarda sotila boshlashiga ishonar, o'z asarlarida negrlarning og'ir turmush tarzi va ularga qilinayotgan adolatsizlikni ifodalashdan to'xtamas edi. Yozuvchining 1894-yilda yozilgan "Ovsar Vilson" romani, uning aynan o'shanday g'oya-

MARK TVEN

Ovsar Vilson



lar bilan sug'orilgan asarlaridan biri.

Romanning boshlanish qismida asar voqealari ro'y bergan shaharcha haqida shunday jumalarni o'qiysiz: "Douson Pristani quldorchilik rivojlangan osoyishta shahar bo'lib, tevaragini serhosil dalalar, boy cho'chqachilik fermalari o'rab olgandi. O'n besh yil burun tashkil topgan bu shaharcha juda sust bo'lsa ham, harqalay rivojlanmoqda edi". Shu yerda o'quvchi adabiyotning umum qonunlariga mos bo'lgan muhim bir holatga e'tibor qaratishi zarur. Garchi muallif yuqoridagi aniq joy nomlarini keltirayotgan bo'lsa-da, "Douson Pristani" shaharchasi aslida ramziy makon hisoblana-di. Yozuvchi bu yerda birgina shaharcha haqida emas, balki butun Amerika hayoti va umumiy davr ob-havosiga o'zining achchiq-kinoyaviy munosabatini bildirmoqda.

Asar qahramonlarini tanishtiruv iboralari ham muallif tomonidan yengil kinoyaga yo'g'rilgan. Masalan, qahramonlardan biri haqida gap ketar ekan, muallif quyidagi so'zlarni yozadi: "U basharti biror qilg'i yo'nojo'ya harakati bilan nafsoniyatigizga tekkan bo'lsa, duel haqidagi talabingizni nazokat bilan jilmayib turib qabul qilishi va uni xohishingizga qarab istagan qurol – yamoqchining bigizidan tortib, to'p bilan ham qondirishga hamisha tayyor edi". Bu esa shubhasiz oriyatni mashhurlik, namoyishkorlik vositalariga aylantirib olgan, bu yo'lda birovning joniga qasd qilishga-da, ikkilanib o'tirmaydigan o'sha davr odamlari tabiati-

ning mohirlik bilan chizilgan badiiy tasviridir.

Asarning asosiy qahramoni janob Vilson obrazi ortida ham jamiyatga nisbatan bir talay kinoya va istehzo berkinib yotibdi. Janob Vilson soddadil, ishonuvchan, shu bilan birga o'ziga xos fikrlash tarziga ega o'qimishli kishilardan edi. U barcha fan yangiliklari bilan qiziqar, uyida muayyan tajribalar ham o'tkazib turardi. Ammo Douson Pristaniga kelgan ilk kunlariyoq aynan ushbu fazilatlarini tufayli o'mi, o'z qobiqlari va har xil rasm-rusumlarga o'ralashib qolgan shahar ahli undan yotsirashdi. Nainki yotsirashdi, balki unga "Ovsar" degan laqab berishdi.

Janob Vilsonning ikkita ermagi bor edi. Bulardan birini u hech kimga aytmasdi – o'zining ovsarligi haqidagi mish-mishlarning yanada urchishidan cho'chirdi. Ikkinchi ermagi esa shisha plastinkalarga odamlarning barmoq izlarini to'plab, kolleksiya yaratish bo'lib, shaharchadagilar buni ovsar Vilsonning ovsarliklaridan biri deb hisoblar edilar.

Asar qahramonlaridan yana biri negr ayoli Roksanadir. Aslida uni negr ham deb bo'lmas – asarda yozilishicha, qonining atigi o'n oltidan bir ulushinagina negrlarniki deyish mumkin edi. Biroq tashqi ko'rinishi oq tanlilardan farq qilmasligiga qaramay, qonidagi o'n olti foizdan bir foizi ustunlik qilib, uning ham peshonasiga boshqa negrlarning ayanchli qismati bitilgan edi. Ya'ni, o'sha paytdagi qonun va bema'ni analarga ko'ra u ham sotib yuborilishi yoki sotib olinishi mumkin bo'lgan xususiy mulk – kul edi.

Kunlardan bir kuni, Roksana xizmatkor bo'lib ishlaydigan xonadonda ikki o'g'il chaqaloq tug'iladi. Chaqaloqlardan birini xonadon bekasining xotini, ikkinchisini Roksana dunyoga keltiradi. Ammo oradan ko'p o'tmay, xonadon bekasining ayoli vafot etib, har ikkala chaqaloq ham Roksananing qarovidagi qoladi.

Xonadon egasi o'g'lining ism-sharifi Tomas Bekket Driskoll bo'lib, Roksananing o'g'li faqatgina ism bilan atalgan edi – negrlar familiyaga ega bo'lish imtiyozidan mahrum edilar. Ham o'z bolasiga, ham xo'jayinining bolasiga qarovchilik qilar ekan, Roksana farzandining butun ayanchli qismatidan tashvishga tushar, xo'jayinining o'g'liga onalarcha havas bilan qarardi.

Bir kuni, janob Driskollning xonasidan arzimagan pul yo'qoladi. Janob Driskoll miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar, ayniqsa pul o'g'irlanishini sira kechirmas edi. U bu ishdan darg'azab bo'lib, xonadonidagi negrlarga "Hoziroq pulni qaysi biringiz olganingizni aytasiz, yo'qsa hammangizni daryoning quyi tomoniga sotib yuboraman!" deb shart qo'yadi. Missuriyalik har bir negr uchun "Daryoning quyi

tomoniga sotib yuboraman!" degan gap "Seni jahannamga yuboraman!" degan bilan barobar edi. Axir daryoning quyi tomonida negrlarning turmushi hozirgidan ham ancha og'irroqligini barcha yaxshi bilardi. Shuning uchun, xonadondagi negrlar baravariga tiz cho'kib, qo'llarini oldinga cho'zgancha:

— Men aybdorman! Pulni men o'g'irlagan edim! Iltimos, kechiring xo'jayin! – deya iltijo qilishga tushishadi.

— Juda soz! — deydi negrlar pulni o'g'irlashganini tan olganliklaridan nihoyat ko'ngli joyiga tushgan xo'jayin. — Garchi bunday marhamatga loyiq bo'lmasangiz ham, mayli, sizlarni shu yerda sotaman. Aslida hammangizni daryoning quyi tomoniga sotish kerak edi!

O'sha kuni janob Driskoll o'zining negrlarga ko'rsatgan marhamatidan o'zi to'liqlanadi. Hatto qachondir o'g'li ulg'ayib, otasining olijanobligiga qoyil qolsin, deb bu voqeani daftariga qayd etib qo'yadi. Lekin Roksanaga bu voqea mutlaqo boshqacha ta'sir ko'rsatgan edi. U tuni bilan mijja qoqmasdan qo'ynidagi murg'ak go'dagining ham qachondir shunday qaro qismatga ro'baru bo'lishini, uning ham boshqa negrlar singari har lahza daryoning quyi tomoniga sotib yuborilishi xavfi mavjudligini o'ylab chiqadi. Va... farzandini bunday qismatdan qutqarish uchun, uni xo'jayinning o'g'li bilan almashtirib qo'yish rejasini tuzadi...

Roksana rejasini qanday amalga oshirganini, ushbu harakati qanday kutilmagan oqibatlarga olib kelganini hamda bu jinoyatni butun shaharcha ahli ovsarga chiqarib qo'yan janob Vilsonning qanday ustalik bilan ochib tashlaganini kitobxonlar asarni o'qish jarayonida bilib olishlari mumkin. Quyida sizlarga asardan insonni o'y-lashga va tabassum qilishga undaydigan bir nechta iqtibos keltirmoqchimiz.

Eng muhimi tarbiya – shaftoli ham dastavval achchiq danak edi!

Aqlli dushman nari borsa, halokat yoqasiga olib borib qo'yadi, lekin batamom halok bo'lish uchun insonga ahmoq do'st kerak.

Mushuk bilan yolg'onning o'rtasidagi asosiy tafovutlardan biri – mushukning atigi to'qqizta joni bor.

Do'stlik shunday muqaddas, shirin, mustahkam va doimiy tuyg'uki, agar pul qarz olishga urinilmasa, uni umrbod saqlash mumkin.

Biror itni ko'chadan yetaklab kelib, non bersangiz, u sizni hech qachon tishlamaydi. Bu it va inson o'rtasidagi asosiy farq!

Bayram ALI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI QABUL KOMISSIYASI 2021-2022-O'QUV YILI UCHUN QUYIDAGI TA'LIM YO'NALISHLARIGA O'QISHGA TAKLIF QILADI:

Bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha								
Shifr	Oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishlari nomi	Jami	Davlat grantlari asosida			To'lov-kontrakt asosida		
			Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
				o'zbek	rus		o'zbek	rus
	(NamMQI) OTM bo'yicha jami	1650	400	392	8	1250	1158	92
5230100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	50	10	10		40	40	
5230200	Menegment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	25	10	10		15	15	
5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	50	10	10		40	40	
5231900	Korporativ boshqaruv	25	10	10		15	15	
5310200	Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)	75	10	8	2	65	42	23
5310500	Avtomobilsozlik va traktorsozlik	25	10	10		15	15	
5310600	Transport vositalari muhandisligi (turlari bo'yicha)	150	30	28	2	120	97	23
5310900	Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha)	50	15	15		35	35	
5311700	Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (kon turlari bo'yicha)	25	5	5		20	20	
5312400	Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha)	25	10	10		15	15	
5320200	Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish	50	20	20		30	30	
5320300	Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha)	75	15	15		60	60	
5320400	Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)	75	15	15		60	60	
5321300	Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi	25	5	5		20	20	
5321700	Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya tizimlari	50	15	15		35	35	
5330200	Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	75	20	18	2	55	32	23
5340200	Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)	125	30	30		95	95	
5340300	Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish	100	30	30		70	70	
5340400	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (turlari bo'yicha)	100	20	20		80	80	
5340500	Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	125	25	23	2	100	77	23
5340600	Yo'l muhandisligi (sohalar va faoliyat turlari bo'yicha)	125	25	25		100	100	
5430100	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	75	20	20		55	55	
5620100	Transport logistikasi (transport turlari bo'yicha)	50	10	10		40	40	
5620400	Yo'l harakatini tashkil etish	25	10	10		15	15	
5630100	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	25	10	10		15	15	
5640200	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha)	50	10	10		40	40	

Bakalavriatning sirtqi ta'lim shakli bo'yicha								
Shifr	Oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishlari nomi	Jami	Davlat grantlari asosida			To'lov-kontrakt asosida		
			Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
				o'zbek	rus		o'zbek	rus
	(NamMQI) OTM bo'yicha jami	650				650	650	
5230100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	25				25	25	
5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	25				25	25	
5310200	Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)	25				25	25	
5310600	Transport vositalari muhandisligi (turlari bo'yicha)	50				50	50	
5310900	Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha)	25				25	25	
5312400	Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha)	25				25	25	
5320200	Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish	50				50	50	
5320300	Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha)	50				50	50	
5330200	Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	50				50	50	
5340200	Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)	75				75	75	
5340400	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (turlari bo'yicha)	50				50	50	
5340500	Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	50				50	50	
5340600	Yo'l muhandisligi (sohalar va faoliyat turlari bo'yicha)	75				75	75	
5340700	Gidrotexnika qurilishi (turlari bo'yicha)	25				25	25	
5450400	Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish	25				25	25	
5620400	Yo'l harakatini tashkil etish	25				25	25	

Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha								
Shifr	Oliy ta'lim muassasasi va mutaxassisliklari nomi	Jami	Davlat grantlari asosida			To'lov-kontrakt asosida		
			Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
				o'zbek	rus		o'zbek	rus
	(NamMQI) OTM bo'yicha jami	151	129	129		22	22	
5A230102	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	5	1	1		4	4	
5A230201	Menegment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	5	1	1		4	4	
5A230901	Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	5	1	1		4	4	
5A231901	Korporativ boshqaruv	5	1	1		4	4	
5A310101	Gidroelektr stansiyalar	6	6	6		0	0	
5A310601	Yer usti transport vositalari va tizimlari (transport turlari bo'yicha)	8	8	8		0	0	
5A310604	Avtomobillar va avtomobil xo'jaligi	5	5	5		0	0	
5A310902	Metrologiya, standartlashtirish va sifati boshqarish (tarmoqlar bo'yicha)	5	5	5		0	0	
5A312401	Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha)	5	5	5		0	0	
5A312701	Intellectual muhandislik tizimlari (yer usti transport tizimlari)	5	5	5		0	0	
5A320201	Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (ishlab chiqarish bo'yicha)	8	8	8		0	0	
5A320302	Mashinashtirish	6	6	6		0	0	
5A320401	Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)	10	10	10		0	0	
5A321501	Texnologik mashinalar va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish (tarmoqlar bo'yicha)	8	8	8		0	0	
5A330201	Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	10	10	10		0	0	
5A340201	Bino va inshootlar qurilishi (inshootlar turi bo'yicha)	10	10	10		0	0	
5A340401	Muhandislik kommunikatsiya tizimlari, qurilishi va montaji (turlari bo'yicha)	12	12	12		0	0	
5A340604	Avtomobil yo'llarini loyihalash va qurish	10	10	10		0	0	
5A340606	Shahar yo'llari va ko'chalar	5	5	5		0	0	
5A340101	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	5	5	5		0	0	
5A620101	Transport logistikasi (transport turlari bo'yicha)	8	2	2		6	6	
5A620401	Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish (transport turlari bo'yicha)	5	5	5		0	0	

ESLATMA: Abiturientlar bakalavriatning kunduzgi va sirtqi shakllari uchun joriy yilning 22-iyunidan 22-iyuligacha qadar (shu kuni ham) Davlat test markazining my.dtm.uz rasmiy veb-sayti va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali my.gov.uz orqali ro'yxatdan o'tishlari mumkin.

Magistratura mutaxassisliklariga esa joriy yilning 1-iyulidan 30-iyuligacha qadar (shu kuni ham) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining magistr.edu.uz rasmiy veb-sayti orqali ro'yxatdan o'tishlari mumkin.

Abituriyentlar va ularning ota-onalari qabul jarayoniga oid ma'lumotlarni har kuni 9:00dan 17:00gacha qadar (yakshanba dam olish kuni) Namangan muhandislik - qurilish institutining CALL-CENTERi va axborot-maslahat markazidan olishlari mumkin. Shuningdek, NamMQIning <https://www.nammqi.uz> web sayti hamda rasmiy telegram kanali https://t.me/NamMQI_YI orqali ham axborot olishlari mumkin.

Murojaat uchun telefonlar: (69) 234-37-56, (69) 234-06-15, (69) 234-05-64, (69) 234-07-82, (69) 234-05-23

Qabul komissiyasi

Birlamchi yong'in o'chirish vositalari

Birlamchi yong'in o'chirish vositalari ichida eng faoli bu — yong'in o'chirgichlardir. Ulardan yong'in sodir bo'lganda yong'in o'chiruvchilar yetib kungacha qadar olovni o'chirishda foydalaniladi. Bu vositalardan o'z vaqtida va to'g'ri foydalana bilish muhim ahamiyatga ega.

Qo'llaniladigan yong'in o'chirish vositalari turiga qarab yong'in o'chirgichlar gazli (uglekislotali, aeroxolli) va kukunli OP-3, OP-5 turlarga bo'linadi. Tashkiliy jihatdan esa ularning qo'lda ishlatiladigan, ko'chma - aravachali turlari ham bor. Karbonat kislotali modda mavjud. Ushbu yong'in o'chirgichlardan asosan elektr manbalari sodir bo'lgan va boshqa hamma turdagi yonuvchi mahsulotlarda sodir bo'lgan yong'inlarni bartaraf etish uchun foydalaniladi.

Ular quyosh nurlari tik tushmaydigan va isitish moslamalaridan uzoqda, har 20 metrda 1 ta, poldan 1,5 metr balandlikda saqlanishi lozim.

Birlamchi yong'in o'chirish vositasidan foydalanish tartibi quyidagicha:

Yong'in o'chirgich olinib, tamg'asi buzilib, rastrubi to'g'rilanib, yong'in sodir bo'lgan joyga olib boriladi va yong'iniga 1 metr masofada turib o'chiriladi.

Murodjon TURSUNOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi Transport qismi binosida
YXTE 3-bo'linma mutaxassisi,
kichik serjant

HURMATLI ABITURIYENTLAR!



M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialida bakalavriat yo'nalishlariga 2021-2022-o'quv yili uchun abituriyentlardan hujjatlar qabul qilish davom etmoqda:

Bakalavriat yo'nalishlari:

1. "Amaliy matematika va informatika" – 60 ta o'rin, shu jumladan 24 ta o'rin davlat granti asosida.

Kirish imtihonlari:

- ☒ Matematika (yozma) – 12-iyul 2021-yil;
- ☒ Rus tili (yozma) – 24-26 iyul 2021 yil.

2. "Psixologiya" – 60 ta o'rin, shu jumladan 24 ta o'rin davlat granti asosida.

Kirish imtihonlari:

- ☒ Biologiya (yozma) – 15 iyul 2021 yil;
- ☒ Rus tili (yozma) – 24-26-iyul 2021 yil.

3. "Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" – 50 ta o'rin, shu jumladan 20 ta o'rin davlat granti asosida.

Kirish imtihonlari:

- ☒ Jamiyatshunoslik (yozma) – 21-iyul 2021-yil;

- ☒ Rus tili (yozma) – 24-26-iyul 2021-yil;

4. "Filologiya" (rus tili va adabiyoti) – 50 ta o'rin, shu jumladan 20 ta o'rin davlat granti asosida.

Kirish imtihonlari:

- ☒ Rus adabiyoti (yozma) – 18-iyul 2021-yil;
- ☒ Rus tili (yozma) – 24-26-iyul 2021-yil;

O'qish muddati 4 yil.

Shoshiling!

- ☒ Arizalar faqat onlayn shaklda MDUning elektron axborot tizimi webanketa.msu.ru. orqali 2021-yil 10-iyulgacha (10-iyul kuni ham) qabul qilinadi.
- ☒ Barcha imtihonlar soat 9:00 boshlanadi (Toshkent vaqti).
- ☒ Har bir imtihondan bir kun oldin soat 17:00 da konsultatsiya o'tkaziladi.
- ☒ Imtihonlar online tarzda ZOOM platformasi orqali qabul qilinadi.


Ma'lumot uchun telefonlar:
71-232-28-11, 232-28-22

Sayt: <https://msu.uz/enrollee>,
e-mail: pk@msu.uz



"MIKROKREDITBANK" ATB

"Mikrokreditbank" ATB Toshkent viloyati mintaqaviy filiali tomonidan Angren shahrining "Nurobod" qo'rg'oni hududida 0,20 gektar yer maydonida yerto'lali yangidan qurilishi rejalashtirilgan, ko'p qavatli (1-2-qavatli bank filiali, 3-, 4-, 5-qavatlari turar joy) binosini qurilish-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun pudratchi tashkilotlarga



TANLOV E'LON QILADI.

Tanlov bo'yicha takliflar 2021-yilning 12-iyul kuniga qadar qabul qilinadi.

Murojaat uchun manzil: 100123, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Farhod ko'chasi, 3-uy.

Ma'lumot uchun telefon: (71) 281-24-35,
faks: (71) 281-24-37

DIQQAT, TANLOV!

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Madaniyat va ziriqli, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika "Tasviriy oyna" ijodiy uyushmasi, Milliy teleradiokompaniya, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi hamda Badiiy akademiyasi mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan.

"Eng ulug', eng aziz" respublika tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovga "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan asarlar-materiallar qabul qilinadi.

"Eng ulug', eng aziz" tanlovi quyidagi nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

- yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari;
- bosma OAV xodimlarining jurnalistik ishlari;
- televidenie va radio ijodkorlarining materiallari;
- internet-jurnalistika;
- tasviriy san'at, foto asarlari va dizayn ishlari;
- kino san'ati asarlari.

Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlarga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- muallif va uning professional faoliyati to'g'risida qisqacha ma'lumot (obyektivka);
- muallifning pasport nusxasi;
- ish joyidan tavsiyanoma;
- muallifning manzili va bog'lanish telefonlari.

Tanlovga 2020-yilning 1-avgustidan 2021-yilning 1-avgustigacha bo'lgan davrda e'lon qilingan materiallar-asarlar joriy yilning 1-avgustigacha qabul qilinadi.

Tanlov g'oliblari Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz yillik bayrami arafasida mukofotlanadi va ularning ro'yxati matbuotda e'lon qilinadi.

Ijodiy ishlarni "Eng ulug', eng aziz" tanloviga deb ko'rsatilgan holda o'z ijodiy yo'nalishlari bo'yicha quyidagi manzilga yuborilishi lozim:

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, 100011. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Tel: 71- 244-64-61.

O'zbekiston "Tasviriy oyna" uyushmasi, 100011. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Tel.: 71- 244-11-64.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 100066, Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni. Tel: (71) 231-83-49

O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi, 100115, Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi 1 "A" uy.

Tel: 71-277-81-49.

Yoshlar muammolariga bag'ishlangan kitob

Mamlakatlar taraqqiyotida yoshlar hamisha alohida mavqega ega bo'lib kelgan. Zero, ular har bir davlatning nafaqat mehnat resurslari, balki milliy suverenitetini asrash va istiqbolini ta'minlashning qudratli kuchidir. Ammo ochig'ini aytish joizki, dunyoning ko'pgina davlatlarida yoshlarning bandligi va moddiy jihatdan ta'minlanishi, ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlari bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan davr talablaridan orqada qolmoqda. Ayrim mamlakat va mintaqalarda yovuz kuchlar va guruhlar ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanmoqdalar. Ular dunyo miqyosida kechayotgan ziddiyatlar, qirg'inbarot urushlar va o'zlarining jirkanch maqsadlarini amalga oshirayotgan turli yovuz kuchlarning bosimi ostida hayot kechirishga majbur bo'lmoqdalar.


O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin o'tgan o'ttiz yil davomida yoshlar ehtiyojlari davlatimiz siyosatidagi eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ularning ta'lim olishi, ish bilan ta'minlanishi va intellektual jihatdan o'sib-ulg'ayishlariga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirish kun tartibiga qo'yilmoqda. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak". Zero, yoshlar o'zlarining tabiati va mentaliteti jihatdan "innovatsiya"ga moyil bo'lgan ijtimoiy guruhdir.

Sotsiologiya fanlari nomzodi Sarvar Otamuratovning "Yangilanayotgan O'zbekiston ijtimoiy-innovatsion jarayonlarida yoshlar faoliyati" nomli monografiyasi (Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyot-matba uyi, 2021) ana shu murakkab jarayonni tahlil qilingani, mavjud muammolar yechimlari haqidagi mulohazalar va ilmiy g'oyalarni ilgari surilgani bilan keng kitobxonlar e'tiborini o'ziga tortmay qolmaydi. Kitob respublikamiz uchun dolzarb ahamiyatga ega muammolar: "yoshlar" ijtimoiy guruhi tushunchasi, mazmuni va mohiyati, jamiyat modernizatsiyalashuvi sharoitida yoshlarni ijtimoiy-innovatsion faollikka undovchi motivlar, faol yoshlar guruhining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, uyushmagan va nisbatan passiv yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari, fan-texnika va informatsion texnologiyalar taraqqiyotining yoshlar faolligida namoyon bo'lish jarayoni, yoshlar guruhida tabaqalanish kuchayishining oldini olishda ijtimoiy-innovatsion faollikning o'rni kabi bir qator yechimini kutayotgan masalalarga bag'ishlanadi.

Mamlakatimizda o'tish davrida amalga oshirilayotgan islohotlarning murakkabligi yoshlarning tubdan o'zgartirishini talab qilmoqda. Davr ulardan islohotlarning oddiy ishtirokchisi emas, balki ularni amalga oshirishga innovatsion, ijodiy yangiliklar va ixtirolari bilan ishtirok etishni taqozo etmoqda. Jamiyatimizda bunday motivatsiyani yuzaga chiqaradigan ilg'or g'oyalar, fikrlar, eng muhimi, tadqiqotlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. To'g'ri, O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda yoshlarga bag'ishlangan ko'plab maqolalar, monografiyalar e'lon qilingan, xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazilgan. Ammo ular murakkab ijtimoiy guruh yoshlarning

maqomi va intilishlari mohiyatini to'la ochib berolmaydi. Chunki, bu ijtimoiy guruh o'zining xarakteridagi jo'shqinligi, maqsad sari intilishdagi qudratlari va jamiyat hayotiga bo'ladigan munosabatlari bilan boshqa sinflar va ijtimoiy tabaqalardan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Yurtboshimiz 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi", deb ta'kidladi.

